

**O'QUVCHILARNING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI  
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI**

Sapayeva Dinora Azamjon qizi

**TDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabasi**

**Ilmiy rahbar: Yoqubova S.B.**

**Annotatsiya:** Ona tili darslarida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik usullari mavjud. Pedagogik jarayon – biror shaxs tomonidan o'rgatish, ko'rsatishni taqozo qiladi. Psixologik jarayon – diqqatni jamlagan holda o'qilayotgan narsaga qarash, tikilishni talab qiladi. O'qib tushunish faoliyati o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan o'rgatilsada, faoliyatni qabul qilish va boshqarish o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. Aqliy faoliyat jarayonlari ta'lif oluvchining psixologik holatiga bog'liq. Pedagogik jarayon bu biror bir shaxs tomonidan o'rgatish, ko'rsatishni taqozo qiladigan jarayon.

**Kalit so'zlar:** o'qib tushunish, pedagogik, psixologik, jarayon, ko'nikma

**Annotation:** This article presents comments on pedagogical and psychological methods of developing students' reading comprehension skills in mother tongue classes. While reading comprehension activity is taught to students by the teacher, acceptance and management of the activity is done by the student. Mental activity processes depend on the psychological state of the learner. Pedagogical process is a process that requires teaching and showing by a person.

**Key words:** reading comprehension, pedagogical, psychological, process, skill.

O'qib tushunish — bu matnni qayta ishlash, uning ma'nosini tushunish va o'qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bog'lab anglay olish qobiliyatidir. So'zlarning lug'aviy ma'nosini bilish, so'zlarning kontekstual ma'nosini bilish, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'lanishini anglash, matn tarkibidagi parchalar asosida xulosa chiqarish, matndagi asosiy fikrini aniqlash, berilgan savollarga matn asosida javob bera olish, matnda ishlatilgan badiiy san'atlar yoki so'z birikmalarini tanib, ajratib olish va ohangini aniqlash, vaziyatning kayfiyatini

(tasdiq, inkor, so‘roq qilish, buyruq berish), muallifning maqsadi, niyati va nuqtai nazarini aniqlash va muallif to‘g‘risida xulosalar chiqarish qobiliyatları o‘qilgan matnni samarali tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar hisoblanadi. O‘qish malakasini egallash ancha murakkab jarayon bo‘lib, uni shakllantirish uzoq vaqtini talab etadi<sup>1</sup>.

O‘qib tushunish jarayonida matndagi turli chiziqlar majmuyini qabul qilamiz, ular grafema deb ataladi. U vizual kirish leksikonidagi mavjud so‘zlar bilan solishtiriladi va so‘z chizmadan iborat tashqi shaklidan mazmundan iborat mohiyatiga aylanadi va idrok qilinadi. Ya’ni, mazkur tasvirga bog‘langan ma’no faollashadi. Bir so‘z bilan aytganda, yozma matndagi so‘zni turli belgilar tizimi – grafemalar yig‘indisi sifatida qabul qilamiz va uni mazmun parchasi sifatida idrok qila boshlaymiz.

Shuni ham ta‘kidlashimiz kerakki, “matnni o‘qish, uni tushunish jarayoni **pedagogik** - biror shaxs tomonidan takrorlab o‘rgatish, ko‘rsatish, psixologik - diqqatni yig‘gan holda o‘rganilayotgan narsaga qarash, tikilishni talab qiladi<sup>2</sup>.

Matn o‘qish ko‘nikmasining pedagogik asoslaridan biri, bu manbaning ongli o‘qilishidir. Ongli o‘qish deganda, birinchi navbatda so‘zning mustaqil ma’nosini, so‘zlarni bir-biri bilan bog‘lanish munosabatini tushunish, matn mazmunidan xulosa chiqara olish, unda tasvirlangan voqeа-hodisalarga o‘z munosabatini bildira olish tushuniladi. Matnni o‘qituvchi bilan birgalikda qilinadigan tahlillari davomida o‘quvchida so‘zning kontekstdagi ma’nosini tushuna borish ko‘nikmasi shakllanadi. O‘qituvchi matnning ongli o‘qilganligi, ya’ni tushunarli bo‘lganligini aniqlash maqsadida matn yuzasidan topshiriqlar tayyorlashi lozim, masalan: matnning turli o‘rinlaridan so‘zlar, gaplar tanlab olinadi. Gaplar aynan emas, balki ma’nosini saqlagan holda boshqa ko‘rinishda qurilishi ham mumkin. Va mazkur so‘zlar tarkibidagi ba’zi harflar, gaplar tarkibidagi so‘zlar tushirib qoldiriladi.

<sup>1</sup> [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBqib\\_tushunish](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBqib_tushunish)

<sup>2</sup> Ismoilov A. v. b Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash.—Toshkent, “Sharq” 2019. 92 b

O‘quvchilar asl matnni o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng, uning tushunarligini aniqlash uchun bu topshiriqni bajaradilar.<sup>3</sup>

Hammada ham matnni o‘qib tushunish bosqichlar bir xil amalga oshavermaydi. Shuning uchun ham muayyan matnni bir xil o‘qib chiqqan o‘quvchilar tushunishining har xil bo‘lishini guvohi bo‘lamiz. Bu uning fiziologik va psixologik jihatlariga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni qabul qilish qobiliyati yoki ruhiy-psixik holatiga, yoki jismoniy holatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, matnni o‘qib tushunishga bir nechta omillar ta’sir etishi mumkin.

Shuning uchun pedagogik o‘lchovlarga doir tadqiqotlarda o‘qib tushunish malakasini baholashda natijalarga salbiy ta’sir etuvchi omillar quyidagicha guruhlashtiriladi:

- matn omillari;
- o‘quvchi omillari;
- vazifa omillari.

Matn omillari matn bilan bog‘liq bo‘lgan omillar: matn tilining og‘irligi, berilish uslubining murakkabligi, matn turlari va unda mavzular tematikasi bilan bog‘liq bo‘lgan omillar.

O‘quvchi omillari - o‘qib tushunuvchi bilan bog‘liq omillar: o‘quvchining yoshi, fiziologik va psixologik holati, tajribasi, kognitiv darjasini bilan bog‘liq bo‘lgan omillar.

Vazifa omillari topshiriq bilan bog‘liq omillar: topshiriqlar hajmi, miqdori, mazmunining aniq va lo‘nda ifodalanganligi bilan bog‘liq bo‘lgan omillar.

Matn o‘qish ko‘nikmasining psixologik asosi o‘quvchining yoshiga, o‘sha damdagi psixik holati, ma’lum bir psixik holatga olib keladigan oliv nerv sistemasi faoliyatiga bog‘liq. O‘qish jarayoni inson hayotidagi uzlusiz jarayon bo‘lib, u har bir shaxsda o‘zgacha namoyon bo‘ladi.

---

<sup>3</sup> Sharopova F.V.5-sinf o‘quvchilarida matnni o‘qib tushunish malakasini shakillantirishning nazariy va metodik asoslari. ped. fan.magist . dis. –T., 2020 . -30 b

O‘qish ko‘nikmasining psixologik asosi o‘quvchining yosh xususiyatlariga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. O‘z ona tilini o‘rganayotgan kichik o‘quvchiga – maktab yoshidagi ruhan va jismonan sog‘lom o‘quvchi deb qaralganda, uning bilish, o‘rganish ko‘nikmalarining shakllanishiga turli psixik omillar ta’sir qilishiga guvoh bo‘lish mumkin<sup>4</sup>.

Shuning uchun ham biz o‘quvchilar o‘qishi uchun matn tanlaganda ularning yoshiga psixologik holatida etibor bergen holda o‘quvchilarga matn tanlashimiz kerak bo‘ladi. 10- sinf o‘quvchisi uchun to’gri keladigan matni 5- sinf o‘quvchisiga berib bo‘lmaydi chunki 5-sinf o‘quvchisi 10-sinf uchun mo‘ljallangan matnga jismoniy va psixologik jihatdan tayyor hisoblanmaydi. 5-sinf o‘quvchisiga 10-sinf uchun mo‘ljallangan matn tili og’irlik va topshiriqlar hajmi kattalik qilishi mumkin. Shuning uchun ham o‘quchilarning yoshiga psixologik holatiga ko‘ra matn tanlash kerak.

Quyidagi berilgan matn 10-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

### **Matn bilan tanishib chiqing. Quyida berilgan savol va testlarga javob bering.**

Adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha Nobel mukofotiga ilk bor 1901-yilda fransuz shoiri Arman Syulli-Pryudom sazovor bo‘lgan edi. Mana shu tarixiy, olamshumul voqeа bo‘lмаганда, ehtimol, Pryudomni jahon tanimasmidt... Ha, hatto o‘z vatanida nomi unut bo‘layozgan shoirni Shvetsiya akademiyasi mukofotga eng munosib nomzod deb topdi. Biroq butun dunyo adiblari ushbu mukofot jahonda asarlari eng ko‘p o‘qilayotgan ulug‘ rus adibi Lev Nikolayevich Tolstoyga berilishini kutayotgandi. To‘g‘ri, Pryudomning iste’dodiga shubha yo‘q, u o‘ziga xos serqirra shoir bo‘lgan. Ammo uning ijodini Tolstoydek ulkan “tog” bilan bo‘ylashtirib bo‘lmasdi, albatta. Tolstoydan kechib, Pryudomning rag‘batlantirilishi esa adabiyot olamida chin ma’noda hayratlanarli hodisa bo‘ldi. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, Tolstoyning o‘zi bu mukofotni rad etgan, ikkinchidan, agar mukofot Tolstoyga berilganda kelgusi nomzodlarga ham o‘ta yuqori talablar belgilangan bo‘lardi va Nobel cho‘qqisi egallab bo‘lmas marraga

---

<sup>4</sup> Ismoilov A. v. b Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash.—Toshkent, “Sharq” 2019. 16 b

aylanib qolishi ehtimoldan xoli emasdi. Bu bilan Syulli-Pryudomga mukofot nohaq berilgan, demoqchi emasmiz, albatta. Uning “asarlarining o‘ziga xos badiiy obro‘si, xususan, yuksak g‘oyaviyligi, mukammalligi, shuningdek, iste’dod bilan samimiylikni ajoyib tarzda uyg‘unlashtirgani uchun” mukofotga loyiq deb topilishi ushbu shoir ijodiga berilgan xolis bahodir... Shvetsiya akademiyasi a’zolari ijodkorga shunday ta’rif beradilar: “Sinchkovlik, kuzatuvchanlik hamda ma’naviy ulug‘vorlik bilan yo‘g‘rilgan zakovat Syulli-Pryudomni boshqalardan ajratib turadi”. Amerikalik tadqiqotchilardan biri shoir haqida shunday yozadi: “U poeziyani zulmat qa’ridan olib chiqdi, shuningdek, baxtga eltuvchi yo‘l azob-uqubatlar, fidoyilik va qardoshlik muhabbatি orqali o‘tadi, deb uqtirdi”. Uzoq vaqt falajlikdan azob chekkan shoir 1907-yil 6-sentyabrda Shatney-Malabri shaharchasida vafot etadi. Uning qanday inson bo‘lganini asarlarida tarannum etilgan xayrli ishlarni nechog‘lik amalga oshirganidan ham bilsa bo‘ladi. Pryudom Nobel mukofoti uchun olgan pulini yosh shoirlarni rag‘batlantirishga sarflaydi. Taassuf ila tan olish kerakki, o‘z davrida adabiyot sohasida ham, olimlar doirasida ham, jamoatchilik ichida ham hurmatga sazovor bo‘lgan ulug‘ Syulli-Pryudomni bugungi kunda hatto vatani Fransiyada ham kam eslashlari achinarli hol, albatta<sup>5</sup>.

### 1-Topshiriq

|   |  |
|---|--|
| 1 | Adabiyot bo‘yicha ilk Nobel mukofotining Syulli-Pryudomga berilgani ko‘pchilikni hayratlantirdi, chunki... |
| A | ko‘plar Shvetsiyada topshiriladigan mukofotning ilk sohibi ham shved adibi bo‘lishini kutgan edi.          |
| B | o‘sha paytda shoir og‘ir kasal bo‘lib, taqdirlash marosimiga kela olmasligi ommaga ayon edi.               |
| C | zamondosh adiblar orasida Syulli-Pryudomdan ham munosibroq boshqa vakil bor edi.                           |
| D | mukofotni Syulli-Pryudomga topshirish keyingi nomzodlarga katta talablar                                   |

<sup>5</sup> Mahmadiyor ASADOV saviya.uz saytidan.

 qo‘yilishiga olib kelishi mumkin edi.

## 2-Topshiriq

|   |   |
|---|---|
| 2 | Matnda ...ga nisbatan muallifning achinish munosabati aks etgan?      |
| A | Tolstoydek dahoning Nobel mukofotiga loyiq ko‘rilmagani               |
| B | Syulli-Pryudom nomining hozirda juda kam yodga olinishi               |
| C | Bugungi kunda Syulli-Pryudomdek shoirlar yetishib chiqmayotgani       |
| D | Adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha Nobel mukofoti juda kech ta’sis etilgani |

1. Matindagi qaysi ko‘makchi va bog‘lovchilarни boshqasi bilan alishtirish mumkin?
2. Yuklamalar qanday qo‘shimcha ma’no yuklamoqda?

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBqib\\_tushunish](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBqib_tushunish)
2. Ismoilov A. v. b Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash.—Toshkent, “Sharq” 2019. 92 b.
3. Mahmadiyor ASADOV saviya.uz saytidan.
4. Sharopova F.V.5-sinf o‘quvchilarida matnni o‘qib tushunish malakasini shakillantirishning nazariy va metodik asoslari. ped. fan.magist . dis. –T., 2020 . -30 b
5. Mahmadiyor ASADOV saviya.uz saytidan